

TASHKILOTNING INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI

i.f.n., prof. **Abduxalilova Laylo Tohtasinovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0003-0783-4078
laylo.66@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada tashkilotlarda investitsiyalarni jalb qilish yo'naliishlari, bu borada qonunchilikda yaratilgan imkoniyatlar, investitsiyalardan samarali foydalanish usullari va bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, mualliflik ta'rifi, shu bilan birga investitsiyalarni boshqarishda moliyaviy usullarning ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, tashkilot, korxona, mexanizm, moliyaviy usullar, boshqarish, samara, xorijiy investitsiyalar, jalb etish, moliyaviy boshqarish.

ФИНАНСОВЫЙ МЕХАНИЗМ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ОРГАНИЗАЦИИ

К.э.н., проф. **Абдухалилова Лайло Тохтасиновна**
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматриваются направления привлечения инвестиций в организации, возможности, созданные законодательством в этом отношении, способы эффективного использования инвестиций и научно-теоретические взгляды на это зарубежных и отечественных ученых, авторское определение, а также Значение финансовых методов в управлении инвестициями.

Ключевые слова: инвестиции, организация, предприятие, механизм, финансовые методы, управление, эффект, иностранные инвестиции, привлечение, финансовый менеджмент.

FINANCIAL MECHANISM OF MANAGEMENT OF INVESTMENT ACTIVITIES OF THE ORGANIZATION

PhD, prof. **Abdukhhalilova Laylo Tohtasinovna**
Tashkent State University of Economics

Abstract. The article discusses the areas of attracting investments in organizations, the opportunities created in the legislation in this regard, the methods of effective use of investments and the scientific-theoretical views of foreign and domestic scientists in this regard, the definition of authorship, and at the same time the importance of financial methods in the management of investments.

Keywords: investment, organization, enterprise, mechanism, financial methods, management, efficiency, foreign investment, attraction, financial management.

Kirish.

Jahon amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tashkilotda faol investitsiya siyosatining yuritilishi va shunga mos ravishda hududdagi mavjud investitsiya salohiyatidan unumli foydalanilishi har qanday davlat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Tashkilotlarda investitsiya faoliyatini moliyaviy mexanizmlari orqali tartibga solish bugungi kunning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xo'jalik sub'ektlari faoliyatidagi investitsion kapital qo'yilmalar xo'jalikni rivojlantrishga qaratilgan samarali vositadir.

Tashkilotlarda investitsion faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Shunday muammolardan biri bo'lib, olinadigan investitsiya resurslaridan mintaqaviy va korporativ darajalarda samarasiz foydalanish xamda investitsion potensialga erishish uchun investitsion faoliyatni moliyalashtirishni tartibga soluvchi usullarning mavjud emasligi, soliqqa tortish jarayonidagi kamchiliklar, davlatning investitsion dasturlarni amalga oshirish siyosatidagi pozitsiyasi va soliq-bojxona qonunchilikdagi yuklamalar muhim muommolardan bo'lib qolmoqda (Baxtiyorova, 2024).

Tashkilotlarda investitsion faoliyatni moliyaviy mexanizmni takomillashtirishdagi yondashuvlar tashkilotning dinamik rivojlanishiga qarab uning egiluvchanligini oshirishga yordam beradi. Asosiy e'tibor xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatini oshirishga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanishni to'xtatib turuvchi bozordan tashqaridagi jarayonlarni tartibga solishnishiga qaratilishi muhimdir.

Investitsion faoliyatni samarali tartibga solish maqsadida manfaatlar kelishuvini ta'minlovchi ichki va tashqi omillarni o'zaro muvofiqlashtirishga chaqirish muhimdir. Kategoriya sifatida "mexanizm" atamasi iqtisodiy qonunlar va tamoyillar ishlashining ob'ektivligi bilan bog'liq bo'lib, uning asosi va mohiyatini tashkil etadi hamda investitsion faoliyatni tartibga solishdagi harakatlar tabiatini belgilaydigan natijalarga erishishdagi vosita hisoblanadi.

Investitsiya jarayonlarini moliyaviy boshqarishda dastlab mamlakatdagi mavjud investitsiya muhitiga baho berish, uning mexanizmlarini aniq belgilab olish, shuningdek, iqtisodiyotni barcha soha va hududlardagi iqtisodiy holatdan kelib chiqib, unga mutanosib uslubiy tizim ishlab chiqish va uni muntazam qo'llab borish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, investitsiya jarayoni, odatda, investitsiya ob'ekti bilan o'zaro aloqadorlik, sarmoya kirituvchi sub'ektning daromad olish maqsadida investitsiya yo'naltirishi, shuningdek, boshqaruv organlari va sub'ekt tomonidan ob'ektga investitsiyali ta'sir etish hamda investitsiya muhitidagi shart-sharoitlarni o'zgartirish bilan belgilanadi.

Investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish tizimiga anqlik kiritish va uning tarkibiy tuzilmasini o'rganishda moliyaviy boshqaruv va moliyaviy boshqaruv mexanizmi tushunchalarini tadqiq etish maqsadga muvofiq. Aksariyat olimlarning fikricha, moliyaviy boshqaruv va moliyaviy boshqaruv mexanizmi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud: moliyaviy boshqaruv tizimi yakuniy maqsad, ya'ni daromadning ko'payishini faqat tegishli mexanizmlardan foydalanish paytidagina ta'minlashi mumkin. Moliyaviy boshqaruv mexanizmi tushunchasi turli ilmiy manbalarda turlicha talqin qilinadi.

Respublikamizda investitsiya faoliyatini tashkil etish yuzasidan bir qator qonun va qonun osti me'yoriy huquqiy hujjatlari ishlab chiqildi. Shu o'rinda e'tirof etish zarurki, investitsiya faoliyatiga oid iqtisodiy munosabatlar turli sohalarga oid qonunchilik me'yorlari bilan tartibga solinadi. Xususan, davlat investitsiyalari moliyaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinsa, ijtimoiy investitsiyalar esa, notijorat tashkilotlariga doir, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar esa, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy bazalar ta'siri doirasida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar sharti.

Oprishkoning (2007) fikricha, tashkilotlarda investitsiyani moliyaviy boshqaruv mexanizmi tashkiliy tuzilma, moliyaviy ta'minot, moliyaviy tartibga solish va turli rag'batlantirish vositalaridan iboratdir.

Sheremet va boshqalar (1997) tashkilotda investitsiyalarni moliyaviy mexanizmini: "tashkilotning moliyaviy munosabatlarini moliyaviy dastaklar orqali moliyaviy usullar yordamida boshqarish tizimi", - deb ta'riflagan bo'lsa, Balabanov va Balabanov (2000) moliyaviy resurslardan foydalanishni tashkillashtirish, rejalashtirish va rag'balantirishda namoyon bo'luvchi moliyaviy dastaklar xatti-harakati tizimi", tarzida tushunadilar.

Jumladan, Melkumov (2003) ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirishda foyda olish maqsadida investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy, mulkiy va intellektual qo'yilmalardan samarali foydalanishni tahlil qilgan. Muallif bu yerda investitsiyalarni daromad manbai sifatida o'rganib, investitsiya faoliyatining turlarini ko'rsatib bergan. Bu yerda bahsga sabab bo'layotgan holat investitsiya ob'ektlarining turlaridir.

Valdaysev va Vorobev (2003) tomonidan chop etilgan darslikda tashkilotlarni investitsiyalashda moliyalashtirish manbalari tahlil qilinadi. Daromad olish jarayonlariga sarflangan pul mablag'lari kelajakda yanada yuqoriqoq daromad yoki ijtimoiy samara topishdan iborat degan xulosaga kelinadi. Bu yerda mualliflar investitsiyalarni ijtimoiy sohalarga yo'naltirish bu real investitsiyalarga nisbatan kattaroq foyda keltirish manbai ekanligini uqtirmoqchi bo'layapti. To'g'ri, misol uchun ta'limga qilingan investitsiya xuddi shunga misol bo'la oladi.

Ismailov (2020) tashkilotning investitsiyali faolligi hududning iqtisodiy rivoji darajasini belgilaydi va investitsiyalarning kutilayotgan daromadliligi uchun kiritilayotgan qo'shimcha mablag'lar hajmini prognozlash imkonini beradi hamda investorlarning kelgusida bozordagi mavqeini belgilab beradi. Kelgusida kutilayotgan investitsiyali faollik jami investitsiya jarayonini rejalashtirish uchun mo'ljal, ya'ni kelajakda kiritiluvchi mablag'lar hajmini belgilashdan toki istalgan kapital oqimiga erishish maqsadida hududning investitsiyali jozibadorligini boshqarishgacha bo'lgan yo'nalish hisoblanadi.

Astanakulov korxonalar investitsiya faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etsa, tahlil natijalariga asoslangan xulosalarni shakllantirish orqali korxonaning kelgusi yillarga mo'ljallangan strategik qarirlarni qabul qilishda foydalanish mumkin. Sifatli o'tkazilgan tahlil natijasida korxona faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli darajadagi xavf-xatar va risklarni oldindan ko'ra olish, aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan strategik qarorlar qabul qilish, risklar darajasini kamaytirish maqsadida turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha diversifikatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Taniqli iqtisodchi olimlardan U. Sharp ham investitsiya faoliyatini fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikriga ko'ra, qimmatli qog'ozlarning daromadliligi va riskliligi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqaga ega bo'lgan oqilona investitsion strategiya investitsion faoliyatni moliyalashtirishning asosi hisoblanadi. Moliyaviy vositachilar (tijorat banklari, jamg'arma va kredit uyushmalari, kredit ittifoqlari, sug'urta kompaniyalari, o'zaro yordam fondlari, pensiya fondlari) esa, korporatsiyalarni fond bozoridan qo'shimcha mablag'lar jalb qilish imkoniyatini bilvosita ta'minlaydi (Jumayev, 2023).

Investitsiya faoliyatining moddiy va nomoddiy turlari bo'yicha respublikamizda bir qator izlanuvchilar faoliyat olib borgan. Jumladan, Karimovning (2011) fikricha, "Yuksak darajada rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyoti tahlili ko'rsatmoqdaki, tashkilotlarning investitsion faolligi bilan iqtisodiy o'sish borasidagi aloqadorlik bir xilda emas. Bunda ular bir-birini taqozo etishi kuzatiladi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy faollikka bog'liq bo'lgani holda, o'z navbatida, iqtisodiyot taraqqiyotining har bir konkret bosqichida mamalakatning real imkoniyatlarini belgilab beradi.

Mustafaqulov (2017) ilmiy izlanishlarida tashkilotning investitsion faoliyati, investitsion salohiyati va investitsion jozibadorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qiladi. "Investitsiya

faoliyatini tartibga solishda eng muhim va hal qilinishi lozim bo'lgan masalalardan biri – chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarini hududlar bo'ylab maqbul darajada bir tekis joylashtirishdir. Hududlarning tabiiy shart-sharoiti, u yerda yaratilgan biznes muhit, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-boshqaruv prinsiplari adolatli yo'lga qo'yilgani, aholining biznes yuritishga va tadbirkorlikni amalga oshirishga ishtiyoqi, riskka moyilligi hamda mehnat resurslarining malakasi, turli xildagi institutsional tuzilmalar mavjudligi, ularning rivojlangani kabi omillar investitsion jozibadaorlikni namoyon etuvchi muhim shartlardan hisoblanadi".

Bizning fikrimizcha investitsiya faoliyatini boshqarishning moliyaviy mexanizmlari bu — tashkilotning investitsiya resurslarini samarali jalb qilish va ulardan foydalanishni ta'minlashga qaratilgan instrumentlar, usullar va chora-tadbirlar majmuasidir. Ushbu mexanizmlar tashkilotning strategik maqsadlariga erishish, daromaddorlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani yoritishda induksiya, deduksiya, ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, analistik tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili amalga oshirildi. Tashkilotlarda investitsiya oqimlarini moliyaviy boshqarish yo'nalishlari bo'yicha qiyosiy tahlillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya qonunchilik me'yorlarining tarmoqlar bo'yicha belgilanishi, investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy ta'minoti darajasini pasaytirgan holda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, birinchi navbatda, harakatdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni soddallashtirish va tizimlashtirish hamda investitsiya faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish sohasiga tegishli bo'lishi talab qilinadi.

Umuman olganda, 2017-2023-yillarda O'zbekistonda investitsiyalar yiliga o'rtacha 14,5%dan o'sib, jami 1 460,4 trln. so'mlik kapital qo'yilmalar amalga oshirilgan. 2017-2023-yillarda YaIMning o'rtacha o'sishi 5,3%ni tashkil etib, mazkur o'sishning 3,9 foizi investitsiyalar hisobiga to'g'ri kelgan. Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2017-yilda 22,7%ni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda bu eng yuqori daraja – 36,8%ga yetgan. So'nggi yillarda investitsiyalar hajmi YaIMga nisbatan barqarorlashib, 2023-yilda 33,0%ga yetgan (IT, 2023).

Hozirgi kunda qulay tashkilotning investitsiya muhitini aniqlovchi qator elementlar mavjud bo'lib, shulardan asosiyлari bo'lib: me'yoriy-huquqiy, ekologik shart-sharoitlar, moliyalashtirishning bozor mexanizmlari, axborot ta'minoti; mahalliy investorlar bilan xorijiy xususiy investorlar o'rtasidagi paritetning ta'minlanganligi, inflyatsiya darajasi, yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sishi, iste'mol va jamg'arma nisbati, foiz stavkalari darajasi, xorijiy investitsiyalarning o'zlashtirish darajasi, malakali kadrlar va mehnat resurslari zaxirasi, bozor tamoyilliari asosida bank-moliya xizmatlari, soliq, monetar va fiskal siyosatni o'z ichiga qamrab oladi.

Investitsiya jarayoni o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki u hamisha keyingi bosqichdagisi muhitga bog'liq. Bu demak, unga alohida yondashib, mazkur tizimning boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqadorlikdagi holatini ko'rib chiqish lozim. Bu esa, investitsiya jarayoni faoliyatining alohida olingen sohasi va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni va ahamiyatini o'ziga xos tarzda bayon etishni taqozo etadi. Har qanday sub'ekt ayrim xususiyatlarni o'zgartirish va ma'lum resurslarni to'ldirishni talab etuvchi taraqqiyotni nazarda tutadi.

1-jadval

**Investitsion faoliyatni tartibga solish mexanizmining bozor munosabatlariga
o'tgandan keyingi shakllanish bosqichlari**

Bosqichlar	Mazmuni
I bosqich 1991-1996-yillar	Iqtisodiy islohotlar natijasida tashkilotlarning investitsion faoliyat yuritish sohasidagi huquqlarining kengayishi. Bu davrda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida sezilarli o'zgarish yuz bermadi. Kapital davlat egalik huquqidan chiqarilib, xususiy va boshqa shakllarga berildi.
II bosqich 1997-yildan 2005-yilgacha	Investitsion faoliyatning nomarkazlashgan shakllariga hamda institutsional o'zgarishlariga asos solinishi natijasida turlishakldagi tashkilotlar o'z mablag'larini investitsiya qilishdamustaqlilikka erishdi. Ishlab chiqarish sohasidan investitsion resurslar nomoddiy ishlab chiqarish hamda tijorat va moliyaviy xizmatlarga kiritila boshlandi.
III bosqich 2006-yildan 2010-yilgacha	Davlat va nodavlat tashkilotlarning investitsion statusidagi o'zgarishlar, mulkka egalik qilish shakllaridan qat'iy nazar investitsiyalar tarkibidagi o'zgarishlar kuzatildi. Investitsiyalar erkin iqtisodiy zonalarga yo'naltirildi.
IV bosqich 2011-yildan 2016-yilgacha	Nafaqat turli manbalarni, balki tashkilotlarning ilmiy-texnikbazalarini boshqarish uchun tegishli sharoitlar yarataldi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalashning tamoman yangi mexanizmi shakllantirildi.
2017-yildan hozirgi vaqtgacha	O'zbekiston iqtisodini muvozanatlashtirish sharoitida investitsionfaoliyatni faollashtirish va uning keyingi barqaror rivojlanishidavom etmoqda. Tashkilotlarning innovatsion-investitsion faoliyati rivojlantirilmoqda. Qayta ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan korxonalarga xorijiy investitsiyalar jalg etilmoqda.

Manba: muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni (2022) bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 26-maqsadida ham iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Unga ko'ra mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish sharoitida kelgusi besh yilda jami 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard AQSh dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish belgilangan. Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish, 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish vazifalari ham ko'rsatilgan.

2-jadval ma'lumotlari asosida aytish mumkinki, mamlakatimizda barcha sohalarda investitsiyalar oqimi doimiy ravishda oshib bormoqda. Masalan birgina eng katta investitsiya kirib keladigan mashina va uskunalarini olsak, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 46,7 %ga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Statistik ma'lumotlar mamlakatimizda har yil o'tgan yillardagidan ko'ra ko'proq investitsiya kirib kelayotganini aks ettiryapti. demak tashkilotlarga kirib kelayotgan investitsiya manbalarini moliyaviy mexanizmlar orqali boshqarish, investitsiyani to'la qonli o'zlashtirishga va samarali yo'naltirishga yozdam beradi.

2-jadval


**Asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy fondlar turlari bo'yicha tarkibi,
mlrd. so'm**

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023
Turar-joy binolari	20621,9	23200,8	29851	30184,2	36732,7
Noturar-joy binolari	33408,1	38172,7	50894,5	58225,1	75452,9
Boshqa inshootlar	23148,7	27039	30290,6	43393,4	44244,1
Yerni yaxshilash	127,3	285,9	277,1	257,1	1000,4
Mashina va uskunalar, jami	107305,8	110493,8	113863,9	115040	168810,7
Transport uskunalari	16588,2	12415,2	14574,5	10718,7	25608,4
Axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunalar	3194,8	7347	5325,6	5199,7	10230
Boshqa mashina va uskunalar	87522,7	90731,6	93963,8	99164,6	126694,6
Bir necha marta mahsulot beruvchi, xayvonlar resurslari	2418,9	2843	3656,8	3847,8	390,3
Bir necha marta mahsulot beruvchi daraxtlar, qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlar resurslari	372	880,7	838,6	783,8	364,5
Noishlab chiqarish aktivlarga mulk huquqini berish bilan bog'liq xarajatlar	198,1	225	138,2	365,8	562,4
Komyuter dasturiy ta'minoti va ma'lumotlar bazalari	28,7	25,2	98,6	154,9	1672,8
Ko'ngilochar, adabiy va badiiy asarlarning asl nusxalari	3,7	1,6	0,8	26	16,8
Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar	5,9	86,5	30,8	210,7	469,4
Foydali qazilmalar zahiralarini razvedka qilish va baholash	763,7	26,7	96,4	203,6	410,7
Boshqa intellektual mulk mahsulotlari	330,1	229	292,3	1169	4546,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

Davlat byudjeti mablag'larisiz ijtimoiy soha tarmoqlari samarali rivojlana olmaydi. Davlat davlat byudjetidagi markazlashtirilgan moliya resurslarining 80 % ga qadar mablag'larini ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ilm-fan, turar-joy va davlat qurilishi sohalarining kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlarini qondirishga yo'llaydi. Markazlashtirilgan moliya mablag'larining qolgan 20 % qismidan mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ishlab chiqarish jabhalarida rag'batlantirish maqsadida foydalaniladi.

Mablag'ni yo'naltirishda investor aniq bir ob'ekt bilan aloqa o'rnatadi va uning ishtirokchisiga aylanadi. Bunday birlashuv dastlab investor ta'siri natijasida investitsiya ob'ektining o'ziga xos xususiyatlarini o'zgartirishga olib keladi, shundan so'ng o'zgargan xususiyatlar investitsiyali daromad sifatida va o'z navbatida, mavjud taqchillikni to'ldirgan va shu bilan birga, uning xususiyatlarini o'zgartirgan holda investorga ta'sir ko'rsatadi. Natijada investitsiya jarayoni yakunlangach, sub'ekt va ob'ekt yangicha ko'rinishda amal qila boshlaydi. Shunday qilib, investitsiya jarayoni sub'ekt va ob'ektning o'ziga xos xususiyatlari birlashuvini ta'minlaydi. Faoliyatning istalgan sohasi turlicha ma'lumotga ega, ya'ni uning ob'ekti va sub'ektlarida turli darajada namoyon etiluvchi xilma-xil xususiyatlar mavjud.



1-rasm. Moliyaviy mexanizmlarning asosiy tarkibiy qismlari

Manba: muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi.

Tashkilotda investitsiyalarni samarali boshqarishda moliyaviy mexanizmlarning ahamiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:

- Investitsiyalarning samaradorligini oshirish orqali tashkilotning resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash mumkin.

- Daromaddorlikni kengaytirish va rentabellikka ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy oqimlarni optimallashtirish.

- Barqarorlikni ta'minlash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini yaratish.

- Kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish, qimmatli qog'ozlar bozori yoki kredit institutlari bilan samarali hamkorligi orqali.

Bu sohada yuz berayotgan ko'pgina investitsiya jarayonlari barcha sub'ektlar va ob'ektlarni muntazam ravishda qamrab olish va ularning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ularning nomoyon bo'lish darajasini tenglashtirishga harakat qiladi. Investitsiya jarayonlarining asosiy kategoriyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, qo'yilmalar hajmining omillar va investitsiya muhiti, ya'ni hududning investitsiya muhitiga bog'liq jihatlarini belgilash imkonini beradi. Agar ma'lum faoliyat sohasida jadal o'sishga olib keluvchi inqilobiy o'pirilish yuz berayotgan bo'lsa, bu o'z-o'zidan tabiiy zanjirli reaksiyani hosil qilib, o'zaro bog'liq sohalar rivojiga turtki bo'ladi. Ushbu holatda faoliyat sohalarida bosqichma-bosqich rivojlanish yuz berayotgan bo'lsa, uning dinamikasi qoida bo'yicha ulardagi eng rivojlanmagan sohaning o'sish imkoniyatlari belgilanadi.

Tashkilotda investitsiya faoliyatini yakuniy strategik rejalshtirish bosqichida esa, investitsiya strategiyasi ishlab chiqiladi. Iqtisodchi olim D. Xan (2015) "tashkilotlarning strategiyasi bo'lib aniq maqsadga yo'naltirilgan turli yo'llar, hajmlar va ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi" deb ko'rsatadi. Investitsiyani rejalshtirishda aniq maqsadlar umumlashtirilsa, investitsiya strategiyasida tashkilotning maqsadlarini tavsiflovchi investitsiya rejali bo'yicha aniq maqsadlar dasturi ishlab chiqiladi. Bunday bosqichlarga ajratishdan asosiy maqsad, yuqori qaytimli kapital va bosqichma-bosqich xarajatlarini amalga oshirish orqali ma'lum davr mobaynidagi strategik jarayonlarni amalga oshirish hisoblanadi. Albatta, bunday bosqichlarning qanday maqsadlarda yo'naltirilganligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- maqsad va vazifalarga erishish uchun istiqbolli investitsiya takliflarini tanlash orqali maqsadli dasturni shakllantirish;

- korxona investitsiya imkoniyatlari ko'lami va tarkibiy tuzilmasi tahlilini amalga oshirish.

Investitsiya strategiyasini yaratish zaruriyati qo'yilgan maqsadlarning murakkabligi, tashqi muhitning beqarorligi va istiqboldagi yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarning ehtimoliy tabiat bilan bog'liq. Shuning uchun investitsiya strategiyasi korxona muvaffaqiyatli odimlanishining asosiy vositasi hisoblanadi (Astanakulov, 2020).

Muvaffaqiyatli investitsiya strategiyasi:

- kompaniyada asosiy investitsiya loyihamalarini amalga oshirishning maqbul mexanizmi yaratilishiga asos bo'ladi;
- aniq va ma'lum maqsadlarga erishish jarayonida strategik inkor etish yuzasidan ma'lumotlar taqdim etiladi;
- kompaniyaning asosiy raqobatdosh afzalliklarini mujassam etadi;
- rejalashtirishning turli darajalarida (strategik, taktik va operatsion) o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi;
- kompaniyada investitsiya resurslaridan foydalanishi optimallashadi;
- tashqi muhit keskin o'zgarganda (rivojlanishning muqobil ssenariylari paydo bo'lganda) kompaniyaning investitsiya potensialini tezkor yuzaga keltiradi.

Investitsiya strategiyalarini amalga oshirish yuzasidan investitsiya dasturlari shakllantiriladi, bu esa o'z navbatida, investitsiya tadqiqotlari natijalariga ko'ra, qabul qilingan investitsiya loyihamari hisoblanadi. Tashkilotning hujjatlashtirish investitsiya dasturini maqsadli investitsiya xaritasida ko'rsatilishi mumkin.

Xo'jalik yuritishning zamonaviy shart-sharoitlarida iqtisodiy o'sishning sur'ati va sifatini ta'minlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlari mutanosib rivojlanishiga erishish innovatsion xarakterga ega bo'lmog'i lozim. Bunga erishishning bir muncha murakkabligi korxona doim tanlov oldida turishi, ya'ni agar yangi turdag'i mahsulot ishlab chiqarilmasa ertami-kechmi tanazzulga uchrashi, yangi turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarishning katta xarajatlar bilan bog'liqligi kabi omillar bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar.

Tashkilotning investitsiya faoliyatini boshqarishda moliyaviy mexanizmlarning to'g'ri tashkil etilishi uning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Zamonaviy sharoitlarda samarali moliyaviy boshqaruv yo'nalishlari texnologik innovatsiyalar, raqamli moliyaviy instrumentlardan foydalanish va global moliya bozoriga integratsiya orqali yanada mustahkamlanadi.

Investitsiya faoliyatini, tahlilini va boshqarishni takomillashtirishda quyidagi xulosalarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin:

Birinchidan, investitsiya faoliyati tahlilini tashkil etishning xususiyatlarini aniqlash, ularni belgilangan xalqaro standartlar talablari darajasida takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib berish;

Ikkinchidan, investitsiya faoliyatini amalga oshirishda yetarli darajada axborot imkoniyatlarini kengaytirish. Bu jahon amaliyotida investitsiya faoliyati tahlilini tashkil etish, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, raqamlashtirish orqali korxonalarning kelgusi istiqbolli davrga mo'ljallangan optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha tegishli tadbirlar ishlab chiqib, uni amalga oshirish imkoniyatlari kengaytirish.

To'rtinchidan, investitsiya faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi investitsiya hajmi, investitsiya samaradorligi, investitsiyadan kutiladigan natija, korxona ichki resurslarining investitsiyaga muhtojlik darajasi kabi ko'rsatkichlarning omilli tahlilini zamonaviy usullari orqali takomillashtirish evaziga samarali investitsiya loyihamalarini joylashtirish va jalb qilish metodologiyasini yaratish zarur.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish maqsadida xorijlik investorlarning ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq o'zlashtirgunlariga qadar barcha ko'rinishdagi soliqlar, bojxona to'lovlar, yig'ilmardan imtiyoz va preferensiylar qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritishda imtiyozli soliqqa tortish tartibini alohida qo'llagan holda ular ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin amalga oshirish ma'qul bo'ladi.

Investitsiya faoliyatini tartibga solishda soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyalaridan samarali foydalanish investitsiyalarni moliyalashtirishda bozor mexanizmlari rolini kengaytirishga olib keladi.

Investitsiya siyosatining faoliyatini tartibga solishda samarali iqtisodiy mexanizmlar orqali chet el kapitalini tarmoq ustuvorligini ta'minlagan holda yo'naltirish tushuniladi. Ayni vaqtida ushbu mexanizm soliqlarning tartibga soluvchi funksiyasi orqali amalga oshiriladi. Bunda davlat va ham nodavlat sektoridagi ishlab chiqarish korxonalarining asosiy kapitalini yangilashga qaratilgan investitsiyalarni rag'batlantirishga e'tibor qaratilishi mumkin.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun tashqaridan mablag' jalb qilish hajmlarida xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va boshqa markazlashtirilmagan manbalar mablag'lari hisobidan ko'paytirish yuqori samara beradi.

Adabiyotlar / Литература/ Reference:

Astanakulov O.T., Raximov M.Y., Kalandarova N.N. (2020). Analysis of The Investment Program of The Analytical Cycle at the Enterprise for the Development of the Company's Entrepreneurial Activity. Academy of Entrepreneurship Journal, Vol: 26 Issue: 3S, 1528–2686. (Scopus) Retrieved from https://www.abacademies.org/articles/_analysis-of-the-investment-program-of-the-analytical-cycle-at-the-enterprise-for-the-development-of-the-companys-entrepreneurial-a-9736.html.

Farmon (2022) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28 январдаги ПФ-60-сонли "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>.

IT (2023) Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар маркази, маълумотлари.

Астанакулов, О. (2022). Корхоналар инвестиция фаолиятининг иқтисодий таҳлили ҳамда унинг мазмуни. Iqtisodiyot Va ta'l'm, 23(6), 88–95. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a817

Балабанов А.И. (200) Финансы / А.И.Балабанов, И.Т. Балабанов – СПб.: Питер, – 192 с.

Бахтиёрова Д., Мирджавхарова Ш. (2024) Инвестиционная практика в современном мире: теория и практика. – Т. 3. – №. 1. – С. 106-110.

Валдайцев С.В., Воробьев П.П. и др. (2003); Инвестиции: Учебник / Под ред. В.В. Ковалева, В.В. Иванова, В.А. Лялина. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, С.17

Жумаев, И. (2023). Инвестиция фаолиятини молиялаштириш манбаларини ривожлантиришнинг назарий асослари. Journal of Fundamental Studies, 1(3), 46–53. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jofs/article/view/316>

Исмаилов, Д. (2020). Особенности финансового управления инвестиционными процессами. Экономика И Образование, 1(3), 77–83. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4393

Каримов Н.Г. (2011) Инвестицияни ташкил этиши ва молиялаштириш: Дарслик. – Т.: ТДИУ, 90 бет.

Мелкумов Я.С. (2003) Инвестиций. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, – С.8

Мустафақулов Ш.И. (2017) Инвестицион муҳит жозибадорлиги. Илмий-амалий қўлланма. /Ш.И. Мустафақулов. – Тошкент: Baktria press, - 33 бет.

Опрышко Е.Л. (2007) Оптимизация источников финансирования инвестиционной деятельности предприятий в российской экономике. Диссер ... канд. экон. наук : 08.00.10. – Краснодар.

Хан Д. ПиК. (2015) Планирование и контроль: концепция контроллинга. – М.: Финансы и статистика, – С. 800.

Шеремет А.Д. (1997) Финансы предприятий: учебное пособие / А.Д.Шеремет, Р.С.Сайфулин. –М.: ИНФРА-М, – 543 с.